

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSIDA IJODIY MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI

Zamiraxon Qo'chqarova Aminjonovna

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 7-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darsliklari tahlili haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, ona tili, sinf, darslik, tahlil, mashq.

Istiqlol tufayli xalqimiz yangi tarixiy davrga qadam qo'ydi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimiga, jumladan, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning maqsad va vazifalariga yangicha yondashishni taqozo etadi. "Ta'lim to'g'risida"gi hamda Xalq ta'limi vazirligining yangi darsliklar avlodini yaratish to'g'risidagi qarori va talablaridan kelib chiqib, boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan yangi ona tili darsliklari nashr qilinmoqda. Ushbu darsliklar oldiga bir qator talablar qo'yilmoqda. Darsliklarning yangi avlodi, avvalo, unda berilgan o'quv topshiriqlari o'quvchini faol ishlashga, shuningdek, mustaqil va ijodiy fikr yuritishga o'rgatadigan shaklda tuzilmog'i zarur. Hozirda amaldagi boshlang'ich sinf ona tili darsliklari zamon talablariga javob beradimi degan savolga javob izlash maqsadida mazkur darsliklarni tahlil qilamiz. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarini tahlil qilishda prof. A.G'ulomov va H.Ne'matovlar tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga tayanamiz. Ushbu tasnifga ko'ra darslikdagi mashqlar o'quvchilarni izlanishga o'rgatish jihatidan quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Qayta xotirlash tipidagi mashqlar.
2. Qisman izlanuvchanlik tipidagi mashqlar.
3. Ijodiy mashqlar.

Darsliklarida o'quvchini mustaqil ishlash, fikrlashga undovchi ijodiy xarakterdagi mashqlar nihoyatda oz miqdorni tashkil qiladi. S.Fuzailov va M.Xudoyberganova, Sh.Yo'ldoshevalarning 3-sinf 2019-yilgi "Ona tili" darsligida ham o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishga alohida e'tibor qaratilgan. Buni 2-sinf "Ona tili" darsligida berilgan "Gap va so'z", "Tovushlar va harflar", "Unli 348 c. tovushlar va harflar", "Undosh tovushlar va harflar", "Nutq. Matn. Gap" kabi mavzularning 3-sinf "Ona tili" darsligidagi "Nutq. Gap. So'z", "Tovushlar va harflar", "Jarangli va jarangsiz undoshlar" kabi mavzular bilan uzviy bogliqligidagina emas, mashqlarning sharti va mazmunida, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga chorlovchi mashqlar tizimida ham ko'rish mumkin. Jumladan, 1-8-mashqlarda so'z, gap va harflarning imlosi yuzasidan sodda mazmunli topshiriqlar berilgan bo'lsa,

keyingi mashqlarda o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan nisbatan murakkab topshiriqlar tavsiya etilgan.

Shuni unutmaslik kerakki, topshiriqlarda barcha o'quvchilar oldiga qo'yilgan talab bir xil, ammo o'quvchilarning saviyasi bir xil emas. Tabiiyki, topshiriqlarni hamma bir xilda to'g'ri bajara olmaydi. Bunday holda qo'shimcha topshiriqlar berish orqali mashq shartini soddalashtirish yo'li bilan o'quvchilarni qiziqtirish mumkin

O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda ular nutqini narsa va shaxslarni bildirgan so'zlar bilan boyitish ham muhim rol o'ynaydi. Birinchi sinfda narsa va shaxsni bildirgan so'zlar haqida tushuncha berishda o'quvchilar faolligiga asoslanish lozim. Chunki ular narsa va shaxs nomlarini bildirgan so'zlarni o'zlashtirishga savod o'rgatish jarayonida tayyorlangan. Predmetlarga qarab ularning nomlarini aytishgan. Bundan tashqari o'qituvchining "Bu nima?", "Bu kim?", "Kim ishdan qaytdi?", "Kim ertalab maktabga yo'l oldi?" kabi savollaridagi «kim», «nima» so'roq so'zlari o'rniga shaxs, narsa nomlarini qo'yib javob berishgan. Shuning uchun ham savod o'rgatish jarayoni predmet bildirgan so'zlar ustida ishlashning birinchi bosqichi sanaladi

O'quvchilarda predmet tushunchasini shakllantirishda quyidagicha ta'limiy o'yin va test topshiriqlaridan foydalanish mumkin: O'qituvchi predmet nomini aytadi. O'quvchilar ularga Kim? Nima? so'roqlarini beradi. Qaysi o'quvchi o'yinda faol ishtirok etsa, golib deb topiladi

Ona tili - har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. Ona tili lug'at tarkibi, asosiy, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an'analarini ifodalovchi so'z va tarkiblardan iborat bo'ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq [1].

Ona tili - millatning ruhidir. Til-davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlanish - millatning yuksalishi demak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi qonuniy nazorati mustahkamlab qo'yilgan. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoyalangan muqaddas davlat ramziga aylandi [2].

Ona tili fanini o'qitishning bosh maqsadi yoshlarimizning ijodiy- mustaqil, o'z fikrini erkin va ta'sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og'zaki shaklda ifodalashga, o'zbek tilidagi qonun-qoidalarni o'zgartirishga, asos, milliy fikr doiraloriga, ona yurt fikrimizga, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviyatimizga, urfodatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

O'quvchilarga til ta'limini singdirishda ularning yosh va bilim darajalarini ham hisobga olish zarur. Chunki 2-sinf o'quvchisiga 4-sinf hajmdagi bilimni berilsa o'quvchi buni hazm qila olmaydi, o'zlashtira olmaydi ham. Aksincha 4-sinf o'quvchisiga 1-2- sinfdagi bilimlar berish bilan cheklanib qolinsa bu ham o'quvchi uchun zerikarli bo'ladi. Natijada o'quvchilarda tilni o'rganishga bo'lgan havas, qiziqish rivojlanish o'rniga susayadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi DTS larida berilgan me'yoriy majburiy ta'lablarni bilishlari kerak. 1-4-sinflarda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1-sinf. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi. Miqdoriy ko'rsatgich: 15-20 so'zdan iborat diktant yoza olish. Talablar

: a) imlo xatolarga yo'l qo'ymaslik;

b) ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi; Diktant turlari: Lug'at diktant, izohli diktant, nazorat diktanti. Miqdoriy ko'rsatgich:

2-3 gapdan iborat sodda matni (fikr ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida) yaratish. Talablar:

a) matndagi gaplarni mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashish;

b) harf va tinish belgilarini to'g'ri yozish;

d) harflarni bir-biridan uzmay yoza olish;

e) so'zlar orasidagi oraliqni to'g'ri belgilash; Matnning xarakteri:

O'quvchiga tanish bo'lgan va ko'z oldiga keltira oladigan buyum, manzara, voqea-hodisalar tasviri.

2-sinf. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi. Miqdoriy ko'rsatgich: 35-40 so'zdan iborat diktant yoza olish. Talablar

a) imlo xatolarga yo'l qo'ymaslik;

b) ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi; Diktant turlari: lug'at diktant, yoddan yozuv diktanti, nazorat diktanti. Miqdoriy ko'rsatgich:

3-4 gapdan iborat bo'lgan kichik va sodda matn (fikr ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida) yaratish. Talablar: a) matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashishi; b) harflar va tinish belgilarini to'g'ri yozish;

d) so'z va gaplarni to'g'ri yozib, tinish belgilarini o'z o'rniga qo'ya olish. Matnning xarakteri: Rasm, manzara, joy, voqea-hodisalar tasviri, o'quvchiga tanish bo'lgan narsa, buyum tasviri.

3-sinf. Diktant turlari: saylanma diktant, lug'at diktanti, ta'kidiy diktant, yoddan yozuv diktanti, nazorat diktanti, izohli diktant, ko'rsatish diktant. Miqdoriy ko'rsatgich: 4-5 gapdan iborat bo'lgan matn (fikr ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida) yaratish Talablar:

a) matndagi gaplarni mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, ko'rsatilgan mavzu doirasiga birlashish; b) so'z va iboralarni to'g'ri yozish, gap oxiriga kerakli tinish belgisini qo'ya olish;

d) tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;

e) matnda so'zlarni takrorlashdan saqlanish va sinonimlarni qo'llay olish. Matnning xarakteri: Manzara. O'quvchi ko'z oldida sodir bo'lgan voqea-hodisa tasviri.

4-sinf. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi. Miqdoriy ko'rsatgich –70-80 so'zdan iborat diktant yoza olish. Talablar:

- a) imlo-xatolarga yo'l qo'ymaslik;
- b) ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi;

Diktant turlari: saylanma diktant, lug'at diktant, ta'kidiy diktant, yoddan yozuv diktanti, nazorat diktant, izohli diktant, ko'rsatish diktant. Miqdoriy ko'rsatgich:

5-6 gapdan iborat bo'lgan matn (Fikr ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida) yaratish. Talablar:

- a) matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, mavzu doirasida birlashishi;
- b) matnda xatboshining yaxlitligi va fikr izchilligini taminlash;
- d) uyadosh so'zlardan (gul: atirgul, ranogul, binafsha, lola) foydalana olish.

Xozirgi zamon darsi shundan iboratki, o'quvchi, tinglovchi, o'qituvchi esa ma'ruzachi bo'lib qolmasligi kerak. Balki o'qituvchi darsni kuzatib tartibga soluvchi rejissyorga aylanmog'i lozim. O'qituvchi darsni shunday tashkil etishi kerakki hamma o'quvchi shu mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritsin, o'z fikrini ayta olsin, kamchiligi bo'lsa o'rtoqlari va o'qituvchi javobidan kelib chiqib to'g'rilay olsin. Darsning xarakter xususiyatiga qarab dars interfaol usulda bo'lishiga erishishi lozim. Darslarda testlardan va tarqatmali materiallardan foydalanish ham yahshi natija beradi.

Umuman yangi darslik eski darslikdan birmuncha mukammal ishlangan. 4-sinf ona tili darsligi R.Ikromova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, D.Shodmonovalar muallifligidagi darslik asosan sakkista katta bo'limni o'z ichiga olgan bo'lib, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, bilish faolligini oshirishga qaratilgan. Bu darslikda oltita asosiy bo'lim bo'lib har bir bo'limda o'rganilishi zarur bo'lgan rejamavzular berilgan. Yangi darslikdagi so'z turkumlari bo'limida berilgan mashqlar, eski

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.03.2020 yildagi 132-son
3. Q Husanboyeva, RNiyozmetova. Toshkent 2018.
4. A.G'ulomovva boshqalar "Ona tili o'qitish metodikasi Toshkent-2012 5. Jumaboyeva Madina nazariya "Ifodali o'qish" Toshkent-2021

Internet havolalar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ona_tili

2. <https://kun.uz/uz/35715601>
3. Gazeta.uz
4. Lex.uz/ru/docs/-4758605